



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No6
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, iyun.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TURIZMDA INVESTITSION MUHITNI YAXSHILASH VA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	21
Ergashkulov Muyinjon Umedovich	
“AVTO PORLOQ KELAJAK 2020” XKNING TASHKILIY-IQTISODIY TAVSIFI VA MOLIYAVIY FAOLIYATI TAHLILI	28
Misirov Asliddin Mamasobirovich Eshdavlatov T.A.	
MOLIYAVIY HOLAT TO‘G‘RISIDAGI HISOBOT KO‘RSATKICHLARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI.....	32
Misirov Asliddin Mamasobirovich Qodirov B.	
MOLIYAVIY HOLAT TO‘G‘RISIDAGI HISOBOTNI TUZISH VA TAQDIM ETISHNING ME‘YORIYHUQUQIY ASOSLARI	36
Misirov Asliddin Mamasobirovich Saidmurodov J.N.	
“AVTO PORLOQ KELAJAK 2020” XKD MOLIYAVIY HOLAT TO‘G‘RISIDAGI HISOBOTNI TUZISH AMALIYOTI	40
Misirov Asliddin Mamasobirovich Xalilov J.H.	



“AVTO PORLOQ KELAJAK 2020” XKDA MOLIYAVIY HOLAT TO‘G‘RISIDAGI HISOBOTNI TUZISH AMALIYOTI

Misirov Asliddin Mamasobirovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Buxgalteriya hisobi kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: misirovasliddin@gmail.com.
<https://orcid.org/0009-0008-2742-5398>

Xalilov J.H.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
BXS – 521 guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonada moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni tuzish jarayoni hisobot davri davomida amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirishdan boshlanishiga alohida e'tibor qaratilgan. Barcha xo'jalik operatsiyalari dastlab birlamchi hujjatlar asosida rasmiylashtiriladi va tegishli hisob registrlariga kiritiladi. Hisobot davri yakunida schyotlar bo'yicha aylanmalar umumlashtiriladi hamda bosh kitob ma'lumotlari shakllantiriladi. Shuningdek, hisobotni tuzish jarayonida aktivlar va majburiyatlarning inventarizatsiyasini o'tkazishning ahamiyati yoritilib, korxonaning moliyaviy holatini baholash, moliyaviy xatolar va noqonuniy operatsiyalarni aniqlash hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkoniyatlari misollar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: korxona, moliyaviy holat, hisobotni tuzish, xo'jalik operatsiyalari, audit jarayoni, “Avto porloq kelajak 2020”, moliyaviy xato, noqonuniy operatsiya, moliyaviy barqarorlik.

Аннотация. В данной статье особое внимание уделено процессу составления отчета о финансовом положении на предприятии, который начинается с отражения хозяйственных операций, осуществленных в течение отчетного периода, на счетах бухгалтерского учета. Все хозяйственные операции первоначально оформляются первичными документами и вносятся в соответствующие учетные регистры. В конце отчетного периода обобщаются обороты по счетам и формируются данные Главной книги. Также раскрывается значение проведения инвентаризации активов и обязательств в процессе подготовки отчетности, анализируются возможности оценки финансового состояния предприятия, выявления финансовых ошибок и незаконных операций, а также обеспечения финансовой устойчивости.

Ключевые слова: предприятие, финансовое положение, составление отчетности, хозяйственные операции, аудиторский процесс, «Avto porloq kelajak 2020», финансовая ошибка, незаконная операция, финансовая устойчивость.

Abstract. This article focuses on the process of preparing the statement of financial position at an enterprise, which begins with recording business transactions carried out during the reporting period in accounting accounts. All business transactions are initially documented through primary records and entered into the relevant accounting registers. At the end of the reporting period, account turnovers are summarized and General Ledger data are prepared. The article also highlights the importance of conducting an inventory of assets and liabilities during the reporting process and analyzes, through practical examples, the opportunities for assessing the financial condition of the enterprise, identifying financial errors and illegal transactions, and ensuring financial stability.

Keywords: enterprise, financial position, preparation of financial statements, business transactions, audit process, “Avto porloq kelajak 2020”, financial error, illegal transaction, financial stability.

KIRISH

“Avto porloq kelajak 2020” XKda ham moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni tuzish, taqdim etish va audit qilish jarayonlari amaldagi qonunchilik hamda buxgalteriya hisobi standartlari talablari asosida amalga oshiriladi.



Korxonada moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni tuzish jarayoni hisobot davri davomida amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirishdan boshlanadi. Barcha xo'jalik operatsiyalari dastlab birlamchi hujjatlar asosida rasmiylashtiriladi va tegishli hisob registrlariga kiritiladi. Hisobot davri yakunida schyotlar bo'yicha aylanmalar umumlashtiriladi hamda bosh kitob ma'lumotlari shakllantiriladi.

Korxonada moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni tuzish jarayonida aktivlar va majburiyatlarning inventarizatsiyasi o'tkaziladi. Inventarizatsiya natijasida asosiy vositalar, ehtiyot qismlar, pul mablag'lari, debitorlik va kreditorlik qarzlarning haqiqiy holati aniqlanadi. Aniqlangan tafovutlar tegishli tartibda buxgalteriya hisobida aks ettiriladi va shundan keyingina yakuniy hisobot shakllantiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy hisobotlarni tuzish va tahlil qilish hamda ularning auditini tashkil etish masalalari xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Xalqaro miqyosda Robert K. Elliott, Thomas R. Dyckman va Jerry J. Weygandt kabi olimlar moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish va audit jarayonlarining nazariy asoslarini ishlab chiqqanlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik tahlil va ilmiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. O'zbekistonda moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, strategik dasturlar va statistik ma'lumotlar tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxona faoliyatida asosiy vositalar muhim iqtisodiy resurslardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi "Avto porloq kelajak 2020" XK faoliyatida diagnostika uskunolari, avtomobil ko'tarish moslamalari, kompressorlar, servis jihozlari, bino va inshootlar asosiy vositalarning asosiy qismini tashkil etadi. Shu sababli asosiy vositalar hisobining to'g'ri yuritilishi va ular bo'yicha moliyaviy hisobot ma'lumotlarining ishonchligini ta'minlashda audit muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy vositalar auditini – bu korxonada asosiy vositalarning mavjudligi, saqlanishi, harakati, baholanishi va moliyaviy hisobotlarda to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish jarayonidir. Auditning asosiy maqsadi asosiy vositalar hisobi amaldagi qonunchilik va buxgalteriya hisobi standartlari talablariga muvofiq yuritilganligini baholashdan iborat.

"Avto porloq kelajak 2020" XKda asosiy vositalar auditini quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- asosiy vositalarning mavjudligini tekshirish;
- asosiy vositalarni qabul qilish va hisobdan chiqarish operatsiyalarini tekshirish;
- asosiy vositalarni baholashning to'g'riligini aniqlash;
- amortizatsiya hisoblashning to'g'riligini tekshirish;
- inventarizatsiya natijalarini o'rganish;
- moliyaviy hisobotlarda asosiy vositalarning aks ettirilishini baholash.

Audit jarayonida auditor, avvalo, asosiy vositalarga oid birlamchi hujjatlarni o'rganadi. Bular qatoriga qabul qilish-topshirish dalolatnomalari, inventar kartochkalari, hisobdan chiqarish dalolatnomalari, xarid shartnomalari va boshqa hujjatlar kiradi. Ushbu hujjatlar asosida asosiy vositalarning korxona balansida qonuniy ravishda aks ettirilganligi tekshiriladi.

"Avto porloq kelajak 2020" XKning 2025-yil balans ma'lumotlariga ko'ra, asosiy vositalar qiymati 1 850 000 ming so'mni tashkil etgan. Auditor ushbu summaning bosh kitob, inventar kartochkalari va moliyaviy hisobot ma'lumotlariga mosligini tekshiradi.

Audit davomida asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatini aniqlashga alohida e'tibor qaratiladi. Boshlang'ich qiymat tarkibiga xarid qiymati, transport xarajatlari, o'rnatish va montaj xarajatlari hamda foydalanishga tayyor holatga keltirish bilan bog'liq boshqa xarajatlari kiritiladi.

Asosiy vositalarning qoldiq qiymati quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\text{Qoldiq qiymat} = \text{Boshlang'ich qiymat} - \text{Jamg'arilgan amortizatsiya}$$

Masalan, korxonadagi diagnostika uskunasi boshlang'ich qiymati 120 000 ming so'm, jamg'arilgan amortizatsiyasi esa 35 000 ming so'm bo'lsa, uning qoldiq qiymati:

$$120\,000 - 35\,000 = 85\,000 \text{ ming so'mni tashkil etadi.}$$

Ushbu qiymat buxgalteriya balansida quyidagicha T-schyot ochish orqali yuritiladi:

Bosh qoldiq 120 000

35 000 — amortizatsiya summasi

Oxirgi qoldiq 85 000



Asosiy vositalar auditida amortizatsiya hisoblashning to'g'riligi ham muhim ahamiyatga ega. Auditor amortizatsiya me'yorlari amaldagi standartlar asosida qo'llanilganligini tekshiradi. Korxonada ko'pincha to'g'ri chiziqli usuldan foydalaniladi.

Yillik amortizatsiya summasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$A = (\text{Boshlang'ich qiymat} - \text{Tugatish qiymati}) / \text{Foydali xizmat muddati}$

Masalan, qiymati 100 000 ming so'm bo'lgan uskuna 10 yil xizmat qilishi rejalashtirilgan bo'lsa:

$A = 100\,000 / 10 = 10\,000$

ming so'm amortizatsiya hisoblanadi.

Auditning muhim bosqichlaridan biri inventarizatsiya natijalarini tekshirish hisoblanadi. Auditor korxonadagi amaldagi asosiy vositalarning mavjudligini inventarizatsiya dalolatnomalari orqali tekshiradi va hisob ma'lumotlari bilan taqqoslaydi. Inventarizatsiya natijasida aniqlangan kamomad yoki ortiqchaliklar buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilganligi o'rganiladi.

Shuningdek, auditor asosiy vositalarning saqlanish holati va ulardan foydalanish samaradorligini ham baholaydi. Foydalanilmayotgan yoki eskirgan uskunalar mavjud bo'lsa, ularni realizatsiya qilish yoki modernizatsiya qilish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Audit natijalariga ko'ra auditorlik xulosasi shakllantiriladi. Agar asosiy vositalar hisobi amaldagi me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq yuritilgan bo'lsa, auditor ijobiy xulosa beradi. Aniqlangan kamchiliklar mavjud bo'lsa, ularni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

O'tkazilgan audit natijalariga ko'ra "Avto porloq kelajak 2020" XKda asosiy vositalar hisobi umumiy hisobda amaldagi qonunchilik va buxgalteriya hisobi standartlari talablariga muvofiq yuritilayotganligi aniqlandi. Asosiy vositalar korxona balansida to'g'ri aks ettirilgan, amortizatsiya hisoblash jarayoni belgilangan tartibda amalga oshirilgan hamda inventarizatsiya natijalari hisob ma'lumotlari bilan mos kelgan. Shu bilan birga, asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini yanada oshirish va ichki nazorat tizimini takomillashtirish korxonaning moliyaviy natijalarini yaxshilashga xizmat qilishi mumkin.

Pul mablag'lari korxonaning eng likvid aktivlari hisoblanib, xo'jalik faoliyatining uzluksizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Pul mablag'larining mavjudligi va ulardan samarali foydalanish korxonaning to'lov qobiliyati hamda moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli pul mablag'lari hisobi va auditiga alohida e'tibor qaratiladi.

"Avto porloq kelajak 2020" XKda pul mablag'lari auditi korxona kassasi, bank hisobvaraqlari hamda boshqa pul mablag'lari bilan bog'liq operatsiyalarning qonuniyligi va to'g'riligini tekshirishga qaratilgan. Auditning asosiy maqsadi moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan pul mablag'lari qoldiqlarining haqqoniyligini tasdiqlash va ularning hisobini yuritishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolarni aniqlashdan iborat.

Korxonaning 2025-yil moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotiga ko'ra pul mablag'lari qoldig'i 560 000 ming so'mni tashkil etgan. Auditor ushbu ko'rsatkichning moliyaviy hisobot, bosh kitob, bank ko'chirmalari va kassa hujjatlari ma'lumotlariga mosligini tekshiradi.

Pul mablag'lari auditining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Kassadagi naqd pul mablag'larining mavjudligini tekshirish;

Bank hisobvaraqlaridagi mablag'larning qoldig'ini tasdiqlash;

Kassa operatsiyalarining qonuniyligini baholash;

Kirim va chiqim kassa orderlarining to'g'ri rasmiylashtirilganligini aniqlash;

Bank operatsiyalarining hisob registrlarida to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish;

Pul mablag'lari bilan bog'liq ichki nazorat tizimini baholash.

Audit jarayonida auditor birinchi navbatda korxona kassasidagi naqd pul mablag'larini inventarizatsiya qiladi. Inventarizatsiya natijalari kassa kitobi ma'lumotlari bilan taqqoslanadi. Agar amaldagi qoldiq va hisob ma'lumotlari o'rtasida tafovut aniqlansa, uning sabablari o'rganiladi.

Pul mablag'lari auditida bank hisobvaraqlari ham muhim tekshiruv obyekti hisoblanadi. Auditor korxonaning xizmat ko'rsatuvchi banklaridan olingan bank ko'chirmalarini buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan taqqoslaydi.

Korxonada pul mablag'larining yetarlilik darajasini baholash uchun mutlaq likvidlik koeffitsiyenti hisoblanadi:

$Kml = \text{Pul mablag'lari} / \text{Joriy majburiyatlar}$

Korxonaning 2025-yil ma'lumotlari asosida:

$Kml = 560\,000 / 750\,000 = 0,75$

Hisob-kitob natijasiga ko'ra, mutlaq likvidlik koeffitsiyenti 0,75 ni tashkil etdi. Bu korxona qisqa muddatli majburiyatlarining 75 foizini mavjud pul mablag'lari hisobidan qoplash imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Masalan, korxona yetkazib beruvchilardan olingan materiallar uchun 200 000 ming so'm miqdoridagi qarzdorlikni bank hisobvaragi orqali to'lagan bo'lsa, quyidagi buxgalteriya provodkasi rasmiylashtiriladi (1-jadval).



1-jadval.

Yetkazib beruvchilarga qarzidorlikni bank hisobvarag'i orqali to'lash bo'yicha buxgalteriya provodkasi

Xo'jalik muomalasi mazmuni	Debet	Kredit	Summa (ming so'm)
Yetkazib beruvchilarga qarzidorlik to'landi	6010	5110	200 000

Mazkur operatsiya natijasida korxonaning kreditorlik qarzlar kamayadi va bank hisobvarag'idagi pul mablag'lari ham tegishli summaga qisqaradi.

Agar korxona xaridordan xizmatlar uchun 150 000 ming so'm pul mablag'i qabul qilgan bo'lsa, quyidagi buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi (2-jadval).

2-jadval.

Xaridordan pul mablag'larining bank hisobvarag'iga kelib tushishi bo'yicha buxgalteriya provodkasi

Xo'jalik muomalasi mazmuni	Debet	Kredit	Summa (ming so'm)
Xaridordan pul mablag'i kelib tushdi	5110	4010	150 000

Ushbu operatsiya korxonaning pul mablag'lari hajmini oshirib, mutlaq likvidlik darajasining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Audit amaliyotida pul mablag'lari hisobi bo'yicha quyidagi hujjatlar tekshiriladi:

Bank ko'chirmalari;

To'lov topshiriqnomalari;

Kassa kirim va chiqim orderlari;

Hisob-kitob schyotlari aylanma vedomostlari;

Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotning "Pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari" satri.

Audit davomida kassa operatsiyalarining rasmiylashtirilishi ham tekshiriladi. Auditor kirim va chiqim kassa orderlari, avans hisobotlari, xizmat safari xarajatlari hamda boshqa to'lov hujjatlarining qonuniyligini baholaydi. Barcha operatsiyalar tegishli tasdiqlovchi hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.

Shuningdek, auditor pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot ma'lumotlarini ham tahlil qiladi. Bu orqali operatsion, investitsiyaviy va moliyaviy faoliyat bo'yicha pul oqimlarining shakllanishi o'rganiladi. Pul oqimlarining ijobiy bo'lishi korxonaning moliyaviy barqarorligidan dalolat beradi.

Audit jarayonida pul mablag'lari bilan bog'liq quyidagi xavflar mavjudligi ham baholanadi:

Naqd pul mablag'larini talon-toraj qilish xavfi;

Hujjatlarni soxtalashtirish xavfi;

Noqonuniy to'lovlarni amalga oshirish xavfi;

Bank operatsiyalarining noto'g'ri aks ettirilishi xavfi;

Ichki nazoratning sustligi natijasida yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotishlar.

Audit natijalariga ko'ra auditor korxona rahbariyatiga ichki nazorat tizimini yanada kuchaytirish, pul mablag'lari harakati ustidan muntazam monitoring o'rnatish va elektron to'lov tizimlaridan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan audit natijalariga ko'ra "Avto porloq kelajak 2020" XKda pul mablag'lari hisobi umumiy holda amaldagi qonunchilik va buxgalteriya hisobi standartlari talablariga muvofiq yuritilayotganligi aniqlandi. Pul mablag'lari qoldiqlari moliyaviy hisobot ma'lumotlariga mos keladi, bank operatsiyalari hamda kassa operatsiyalari tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan. Korxonaning mutlaq likvidlik koeffitsiyenti 0,75 ni tashkil etib, qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash imkoniyati yetarli ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, pul mablag'lari ustidan ichki nazoratni kuchaytirish va raqamli moliyaviy boshqaruv tizimlaridan keng foydalanish korxonaning moliyaviy xavfsizligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov A.A., Kurbanbayev J.E., Jumanazarov S.A. **Buxgalteriya hisobi: darslik.** – T.: Iqtisod-Moliya, 2019. – 624 b.
2. Bakiyeva X., Rizayev N. **Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Masalalar to'plami.** – T.: TMI, 2007.



3. Warren C.S., Reeve J.M., Duchac J.E. **Accounting**. – 2014.
4. Джамбакиева Г. **Финансовый учет: учебное пособие**. – Т.: Iqtisod-Moliya, 2012.
5. Xolbekov R.O. **Buxgalteriya hisobi nazariyasi: darslik**. – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.
6. Urazov K.B. **Buxgalteriya hisobi va audit**. – Toshkent, 2004.
7. Urazov K.B., Vaxidov S.V. **Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari: 5340900 – Buxgalteriya hisobi va audit ta'lim yo'nalishi talabarlari uchun darslik** / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti. – T.: Adib, 2011. – 496 b.
8. Egamberdieva S.R. **Moliyaviy va boshqaruv hisobi: o'quv qo'llanma**. – T.: Fan va texnologiya, 2019. – 289 b.
9. Qurbanov Z., Misirov K. **Moliyaviy va boshqaruv hisobi: darslik**. – T.: Iqtisod-Moliya, 2019. – 751 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

6-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>